



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 7-avgust, № 160 (9055)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Munosabat

YAXSHI QO'SHNIHLIK, MINTAQAVIY BIRDAMLIK ALOQALARI YANGI BOSQICHDA

Azaldan xalqimizda qo'ni-qo'shni orasida mehr-oqibat, o'zaro hurmat, yaxshi-yomon kunlarda birga bo'lish muqaddas qadriyatlardan biri sifatida ulug'lanadi. Shu jihatdan mamlakatimizning yon qo'shnihilik munosabatlari birdamlik va mintaqaviy o'ziga xoslik asosida mustahkamlanayotgani tahsinga sazovor. Bu esa Markaziy Osiyoning iqtisodiy faollik markaziga aylanayotganidan darak beradi. Va asosiysi, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari do'stlik, yaxshi qo'shnihilik hamda o'zaro hurmat ruhida jadal rivojlanayotgani bevosita jahon hamjamiyatida ishonchli hamkor sifatidagi ko'p qirrali aloqalarning yanada rivojlanishiga yo'l ochadi.

Shu jihatdan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan 4-5-avgust kunlari amaliy tashrif bilan Turkmaniston Respublikasida bo'lishi ko'p qirrali munosabatlar va strategik sheriklik aloqalarining yanada mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan suhbat chog'ida Turkmanistonda o'tkazilayotgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi mintaqamiz uchun, uning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari 5-avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish masalalariga bag'ishlangan maxsus tadbirida ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq Toshkent shahrida bo'lajak Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlikning asosiy jihatlari ko'rib chiqildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha

uchinchi konferensiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi uchun" ordenining tantanali topshirilishi, shubhasiz, mintaqa hududida aniq pozitsiyaga ega bo'lgan maqsad bilan olg'a borayotgan mamlakat yo'lbo'shchisiga bildirilgan yuksak ishonchning namunasi bo'ldi.

Prezidentimiz o'z minnatdorligini bildirarkan, "ushbu mukofotni O'zbekiston va uning ko'p millatli xalqiga alohida e'tibor va hurmat, Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, yaxshi qo'shnihilik, o'zaro ishonch va sheriklik munosabatlari mustahkamlash borasidagi umumiy sa'y-harakatlarimizning e'tirofi sifatida qabul qilaman", deya ta'kidladi.

Mazkur e'tirof boy tarixiy tajriba, qardoshlik va o'zaro hurmat an'analarga asoslangan O'zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilganining yana bir amaliy tasdiqidir.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmanboshi shahridagi "Avaza" milliy turizm hududida o'tgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etdi.

MANASLIKLAR HAYOTINI O'ZGARTIRGAN QIQQ BESH KUN

Qirq besh kun... Bu jumla aytilganda milliy adabiyotimizning taniqli namoyandasi, O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmadning shu nomdagi asari yodga tushadi.

Ma'lumki, Katta Farg'ona kanali xalqimizning fidokorona mehnati tufayli qirq besh kunda qurib bitkazilgan va bu shonli voqe'lik xalq qahramonligining yorqin namunasi sifatida mamlakatimiz tarixi solnomasiga zarhal harflar bilan bitib qo'yilgan. Bundan qariyb sakson yil oldin umumxalq hashari yo'li bilan qurilgan bu ulkan obihayot manbai ona zamin bag'rini gulu chechaklarga, dovdaraxtlarga, noz-ne'matlarga burkagancha hamon hayot qo'shig'ini aytib, sharqirab yotibdi.



Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

Oradan sakson yil o'tib yana "Qirq besh kun"ning yangi nafasi, yangroq sasi xalqimizning qalbini junbushga keltirdi. "Obod qishloq" dasturining mamlakatimizda eng birinchi bo'lib Mirzacho'lning bir bo'lagi bo'lmish Jizzax viloyatining Do'stlik tumanidagi Manas

qishlog'ida hayotga tatbiq etilgani va bu ilk tajribaning ham qirq besh kunda amalga oshishida ulug' hikmat bordek...

Qirq besh kun ichida eng xarob qishloq eng obod qishloqqa aylanib qolsa deng... Ming avaylansa-da, poyabzali loyga belanib safarga

ketgan manaslik, qirq besh kun o'tib qishloqqa qaytganda asfalt yotqizilgan keng va ravon ko'chalar bo'ylab kirib kelsa... Borliq edingina uyg'onib, yo'l chetiga ekilgan anvoiy gullar hamalning ilk kunlaridayoq sarafroz aytib sollarib tursa deng!...

AVAZADAGI BMT KONFERENSIYASI MANFAATLI MULOQOTLARGA BOY BO'LDI

O'zbekiston delegatsiyasi Avaza shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasidagi tadbirlarda ishtirok etdi.

Uchrashuv

O'zbekiston delegatsiyasi tadbirlarda qatnashish bilan birga xalqaro tashkilotlar vakillari hamda parlamentlar rahbarlari bilan manfaatli uchrashuvlar ham o'tkazdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevaning shunday muloqotlaridan biri BMT Bosh kotibining oliy vakili Fatima Rababxonim bilan bo'lib o'tdi.

F. Rababxonim Toshkent shahrida o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasini yuksak baholab, bugungi Senat faoliyati dunyo mamlakatlarining ko'plab parlamentlari uchun namuna ekanini e'tirof etdi.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo

davlatlarining o'zaro do'stona munosabatlari hamda yaqin qo'shnihilik aloqalari davlatlar va mintaqa rivoji, xalqaro farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etayotganiga alohida urg'u berildi.

Muloqot chog'ida mintaqamizda tashqi savdo, transport va kommunikatsiya sohalaridagi imkoniyatlar hamda xalqaro darajada hamkorlikni kuchaytirish borasida istiqbolli rejalar muhokama qilindi.

Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan vazifalar hamda BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida qabul qilingan

hujjatlarining samarali ijrosini ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Avaza shahrida Xalqaro migratsiya tashkilotining BMTdagi missiyasi rahbari Pyer Lilyert bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida P. Lilyert O'zbekistonning global, xavfsiz, tartibli va doimiy migratsiya haqidagi xalqaro kelishuvlarni birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlagan davlatlardan biri ekanini ta'kidladi. Shuningdek, 30-iyul — Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya tomonidan tashkil etilgan "Odam savdosiga qarshi kurashishda global tahdidlar: jamiyatning roli va xalqaro hamkorlik" mavzuidagi xalqaro konferensiya ishini yuqori baholadi.

ISLOHOTLAR RIVOJI KAFOLATI VA TASHABBUSKORLIK ASOSI

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh tarmoqlar yaratish "O'zbekiston — 2030" strategiyasida asosiy vazifa sifatida belgilangan. Mamlakatimizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ishlarda investitsiya muhitini yaxshilash, korrupsiyaga qarshi kurashish, kadastr, bojxona va soliq tizimlarini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani ahamiyatlidir. Albatta, bunda Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining muhim o'rni bor.

Tahlil

Qayd etish kerakki, joriy yilning o'tgan yarim yillikdagi faoliyatimiz samarali kechdi. Iqtisodiy islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash, sohadagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash masalalari diqqat markazimizda bo'ldi.

Hisobot davrida qo'mita qonun ijodkorligi yo'nalishida 18 ta qonun loyihasi uchun mas'ul bo'ldi. Banklarda to'lovga qobiliyatsizlik holati vujudga kelganda mazkur banklarning iqtisodiyot uchun muhim vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta'minlashga, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga, faktoring munosabatlari rivojlantirishga, shuningdek, firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning xabarisiz kredit mablag'larini ularning nomiga rasmiylashtirish holatlarining oldini olishga qaratilgan muhim normalar aks ettirildi.

Prezidentimizning Oliy Majlis palatalarining 2024-yil 18 — 20-noyabrda bo'lib o'tgan majlislaridagi nutqlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan Qonunchilik palatasining Harakatlar dasturi ijrosi yuzasidan tizimli ishlar olib borildi. Xususan, Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish va hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotini Qonunchilik palatasiga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish yo'lga qo'yildi.

AEROKOSMIK TEXNOLOGIYALAR TATBIQ ETILADI

Mamlakatimizning iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga kengaymoqda. Jumladan, ikki yil mobaynida:

sohada foydalanilayotgan 4 million gektardan ziyod yerlar kosmik monitoring qilindi, 60 ta yirik suv ombori ilk bor batimetrik tahlildan o'tkazildi.

Shuningdek, endilikda:

qishloq va suv xo'jaligi sohasiga davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarning

maqsadli ishlatilishini masofaviy monitoring qiladigan tizim yo'lga qo'yiladi;

ilmiy institutlarni jalb etgan holda sug'orish me'yori va gidromodul rayonlashtirish to'liq yangilanadi;

barcha suv omborlariga "aqlli" hisoblagichlar o'rnatilib, suv miqdorini onlayn kuzatish choralari ko'riladi;

uchuvchisiz apparatlardan foydalanish ham rejalashtirilgan bo'lib, kuzda 100 dan ziyod zamonaviy dronlar olib kelinishi natijasida fermerlarga dronlar yordamida xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Shu bilan birga, yer, kredit, subsidiya va agroxizmatlar bo'yicha 30 dan ortiq platformalar birlashtirilib, "Raqamli qishloq xo'jaligi" yagona integratsion platformasi ishga tushiriladi.



Fakt va raqamlar



AVAZDAGI BMT KONFERENSIYASI MANFAATLI MULOQOTLARGA BOY BO'LDI

Suhbat chog'ida chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan vatandoshlarimiz va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash, odam savdosiga qarshi kurashishda hamkorlikni kuchaytirish masalalariga urg'u berildi.

O'zbekiston fuqarolarini ish bilan ta'minlash hamda global migratsiya jarayonlari doirasida fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish va zarur choralar ko'rish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, Tanzila Norboyeva BMTning Dengizga chiqish imkoni

bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida Portugaliya Tashqi ishlar vazirligi davlat kotibi Ana Izabel Ksavyer bilan ham uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat chog'ida A. Ksavyer xonim O'zbekistonning bugungi investitsiyaviy rivojlanish sur'atlarini yuqori baholadi hamda o'z davlati o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi.

Muloqotda ta'lim, turizm va madaniyat sohalari hamkorlikni mustahkamlash hamda hududlararo aloqalarni rivojlantirish masalalariga alohida urg'u berildi va Portugaliyaning Yevropa Ittifoqi doirasida

O'zbekiston bilan yaqin hamkorlik qilayotgan mamlakatlardan biri ekani ta'kidlandi.

Tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotini yanada kuchaytirish borasida kelishib oldi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi munosabati bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari hamda Ozarbayjon milliy kunlariga bag'ishlangan tadbirlar doirasida Gurbanguli Berdimuhamedov nomidagi Homiylikka

muhtoj bolalarga ko'maklashish xayriya jam'armasining tibbiy faoliyat bo'yicha vitse-prezidenti Og'uljahan Atabayeva bilan uchrashdi.

Samimiy ruhda o'tgan muloqotda xalqlarimizni birlashtirib turadigan ko'p asrlik do'stlik davlat rahbarlarining faol sa'y-harakatlari tufayli izchil mustahkamlanib, strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani alohida ta'kidlandi. Uchrashuvlar davomida ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarni yanada faollashtirish hamda hamkorlikda madaniy tadbirlarni muntazam o'tkazish masalalari ham ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitalarida

ELCHILARNING HISOBOTLARI TINGLANDI



Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalariga qo'mitasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Senatorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Vengriya va AQSHdagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, investitsiyalarni hamda xorijiy sayyohlarni jalb qilish, milliy mahsulotlar eksportini oshirish, oliy va yuqori darajadagi tashriflar doirasida qabul qilingan "yo'l xaritalari" ijrosi to'g'risidagi hisobotlari eshitildi.

Ta'kidlanganidek, yurimizda faol investitsiya sifosatini olib borishda xorijiy investitsiyalarni, jumladan, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar grantlarini jalb etish, milliy mahsulotlarni jahon bozorlariga eksport qilish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va turistlar oqimini oshirish orqali hududlarni har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, joriy yil 30-iyul

kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini ko'paytirish masalalarini muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishida yangi zaxira va imkoniyatlarni ishga solish vazifalari belgilab berilgan edi. Shundan kelib chiqib mamlakatimizning xorijdagi diplomatik va konsullik muassasalari eksportchi korxonalariga xorijda bozor topish, milliy mahsulotlarga sertifikat va ruxsatnomalar olib berish, ko'rgazmalar tashkil qilish, xorijda savdo uylari va omborlar ochish masalalariga e'tibor qaratishi lozimligiga urg'u berildi.

Majlisda mamlakatimizning Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Vengriya va AQSHdagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan 2024-2025-yillarda savdo-iqtisodiy, investitsiya, eksport,

logistika, transport, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, madaniyat, turizm va migratsiya kabi muhim sohalarda aloqalarni yanada kengaytirish hamda tegishli "yo'l xaritalari" da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar atroflicha muhokama qilindi.

Mazkur diplomatik vakolatxonalarning faoliyati samaradorligini oshirishda hamda mavjud muammolarni bartaraf etishda ularning mutasaddi vazirlik va idoralar, hokimliklar hamda mahalliy Kengashlar bilan muntazam va to'g'ridan-to'g'ri aloqalarini yo'lga qo'yish zarurligi alohida urg'ulandi.

Shuningdek, respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati va salohiyatidan kelib chiqqan holda investorlarning qiziqishlarini oshirish, hamkorlikda bajarilayotgan investitsiya loyihalarini qayta ko'rib chiqish va to'xtab qolganlarini istiqbolli loyihalarga almashirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, ushbu mamlakatlarda vaqtincha bo'lib turgan fuqarolarimizga sifati konsullik-huquqiy yordam ko'rsatish, savdo uylari va mahalliy kompaniyalar bilan aloqalarni faollashtirish, shuningdek, o'zbekistonlik tadbirkorlar va ishlabarmonlarga yaqindan yordam berish, O'zbekistonning savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy manfaatlarini ilgari surish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi hamda tegishli tavsiyalar berildi.

QONUN MOHIYATI MAHKUMLARGA TUSHUNTIRILDI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan voyaga yetmagan mahkumlar bilan suhbatlashdi.

Senator va hayot

Muloqot chog'ida Senatning 9-yalpi majlisida senatorlar tomonidan muhokama qilingan "Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyi javobgarlikni yanada liberalashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati batafsil tushuntirildi.

Xususan, 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etilgan o'ta og'ir bo'lmagan jinoyati uchun jazoni to'liq o'tagan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi

qonunda belgilanganligi ta'kidlandi. Bu qoida yo'ldan adashgan yoshlar hayotida yangi imkoniyatlar yaratish hamda ularni jamiyatga qaytarishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, senator jazoni ijro etish muassasasi xodimlari bilan ham uchrashdi. Unda korruptsiyaga qarshi kurashish yo'lida olib borilayotgan ishlohotlar, amaldagi milliy qonunchilik talablari va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida fikr yuritildi.

MAHALLA – AHILLIK QO'RG'ONI

Mingbuloq tumani hokimligida mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish, ota-onalar kengashi faoliyatini samarali tashkil etish masalalariga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zosi Ikromxon Najmiddinov, mahalliy Kengash deputatlari, tuman hokimligi mas'ul xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va jamoatchilik vakillari ishtirok etgan tadbirida jinoyatchilikni bartaraf qilish, aholi xavfsizligini ta'minlashda mahallalarning o'rni va ahamiyati xususida fikr almashildi.

Uchrashuvda senator I. Najmiddinov mahallalarni xavfsiz hududga aylantirish, jinoyatlarining oldini olish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida to'xtaldi.

Ta'kidlanganidek, "mahalla yetilligi", nuroniylar hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni qat'iy yo'lga

qo'yish orqali joylarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Shuningdek, Yurtboshimiz tashabbusi asosida mamlakatda ma'naviy rivojlanish asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, qo'ni-qo'shni va mahalladoshlar ahilligini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham so'z yuritildi.

Uchrashuv yakunida mahallada jinoyatchilikning oldini olish, ota-onalar kengashlari faoliyatini jonlantirish, yoshlar bilan samarali ishlash, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish yuzasidan tegishli tavsiya va vazifalar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

ISLOHOTLAR RIVOJI KAFOLATI VA TASHABBUSKORLIK ASOSI

Fuqarolarning uy-joy qurilishiga jalb etilgan mablag'larini kafolati himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini to'g'ri tashkil qilish, investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va ular ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini yanada mustahkamlashda quyi palata deputatlarining faol ishtiroki ta'minlandi.

Kreditorlarning garov bilan mustahkamlangan talablarini qanoatlantirish tizimini takomillashtirish, davlat xaridlarida raqobat muhitini yanada yaxshilash va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ulushini qisqartirish yuzasidan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihalariga takliflar ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, kadastr xizmatlarini ko'rsatish tizimida amalga oshirilayotgan ishlar holati, tuman va shaharlarda yer soligi va ijara to'lovlari uchun belgilangan qiymatlarga oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash ishlarini mahalliy Kengashlar deputatlariga tushuntirish bo'yicha o'tkazilgan seminarlar yakunlari, tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit ajratishda korruptsiyaviy omillarni bartaraf etish, bu borada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish yuzasidan takliflar tayyorlanib, ularni joriy qilish choralari ko'rilmoqda.

Hozirgi vaqtda qo'mitamiz tomonidan franchayzing munosabatlarning zonusini asoslarini ishlab chiqish yuzasidan hujjatlar tayyorlanmoqda.

"Xalq so'zi".

Albatta, bunda qo'mitamizning tegishli qarori bilan tuzilgan jamoatchilik kengashi (ekspert guruhi) a'zolarining faol ishtiroki ham muhim o'rin tutayotir.

Hisobot davrida jamoatchilik kengashining 4 marotaba yig'ilishi o'tkazildi. Ularda qo'mita mas'ul bo'lgan qonun loyihalarini muhokama qilindi hamda mavjud muammolar va kelgusidagi vazifalar ko'rib chiqildi.

Nazorat-tahlil faoliyati qo'mitamizning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Qonunlar va qonunosni hujjatlar ijrosini ta'minlashda ro'yogba qiqarilayotgan ishlar nazorat-tahlil tartibida o'rganilib, ularning yakunlari bo'yicha mansabdor shaxslarning axborotlari muntazam

topish, mavjud muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. O'tgan davrdagi qo'mitamiz a'zolari hududlardagi o'rganishlari davomida aniqlangan muammolarga mutasaddilar e'tiborini qaratgan holda hal etishga jiddiy yondashdi. Mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish hamda ularni hal etishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qo'mitaga kelib tushgan jami 174 ta murojaatdan 62 tasiga ijobiy yechim topildi, qolganlari esa belgilangan tartibda ko'rib chiqilmoqda.

eshtitib borilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining dolzarb masalalar yuzasidan 10 marotaba axboroti eshitildi.

Shuningdek, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining 2024-yildagi ijrosi hamda 2025-yil birinchi choragidagi ijrosi to'g'risida Vazirlar Mahkamasining hisobotlari tinglandi.

Saylovchilar bilan muloqot aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim



masalalar yuzasidan jami 7 ta deputat so'rovi yuborildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida o'rganish hamda ularni hal etishga ham alohida e'tibor qaratildi. Qo'mitaga kelib tushgan jami 174 ta murojaatdan 62 tasiga ijobiy yechim topildi, qolganlari esa belgilangan tartibda ko'rib chiqilmoqda.

Shu o'rinda keyingi paytda fuqarolar tomonidan yo'llanayotgan murojaatlarda qonun hujjatlari

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

O'zbekiston – JST: XALQARO TALABLAR VA HUQUQIY SOHADAGI UYG'UNLASHUV

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha komissiyasi tomonidan "O'zbekistonning JSTga qo'shilishida qonun hujjatlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.



Unda Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, deputatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha vakili, mamlakatimizning JSTga a'zoli bo'yicha muzokarachilar guruhi a'zolari hamda "aql markazlari" vakillari ishtirok etdi.

Tadbir qatnashchilar O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini yakuniga yetkazishda qonunchilik ishlohotlarining o'rni bo'yicha fikr almashish, bu borada qonun chiqaruvchi va muzokarachilar samarali yakuniga yetkazish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat yuzasidan to'liq ma'lumot olish imkoniga ega bo'ldi.

Xususan, JSTga a'zo bo'lish jarayonida amalga oshirilgan qonunchilik ishlohotlari yo'nalishidagi ishlar atroflicha muhokama qilindi. Birgina 2024-yilda bu borada 24 ta normativ-huquqiy hujjat, xususan, 6 ta qonun qabul qilingani hamda ular asosida 74 ta normativ-huquqiy hujjatga, jumladan, 10 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgani ta'kidlandi.

Shuningdek, 2025-yil davomida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan milliy qonunchilik JST bitimlariga muvofiqashtirish bo'yicha tizimli faoliyat olib borilayotgani qayd etildi.

O'tgan davrda quyi palata tomonidan intellektual mulk huquqini himoya qilish tizimini JSTning TRIPS bitimi talablariga muvofiqashtirishga, bo'xona qonunchiligida eng qulay rejimni qo'llash bilan bog'liq qoidalarini JSTning Tariflar va savdo

bo'yicha Bosh kelishuvi (GATT) qoidalar asosida takomillashtirishga, davlat boji to'g'risidagi qonunchilikni JST bitimlari talablariga muvofiqashtirishga qaratilgan, shuningdek, JSTning Sanitar va fitosanitar tadbirlarni qo'llash haqidagi bitimi asosida hamda Kodeks Alimentarius kabi xalqaro standartlarga hamohang ishlab chiqilgan "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihalari qabul qilingani ta'kidlandi.

Ishtirokchilar tomonidan Prezidentimizning O'zbekistonning JSTga qo'shilishi masalasiga berayotgan e'tibori natijasi o'laroq, so'nggi ikki yil davomida muzokaralar jarayoni yanada jadallashtirib, juda qisqa tarixiy davr mobaynida mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning 5 marotaba yig'ilishi o'tkazilgani va bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar yakunlovchi bosqichga chiqqani alohida qayd etildi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston AQSH, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Braziliya, Saudiya Arabistoni kabi 24 dan ortiq JST a'zolari bilan milliy bozorimizga ushbu davlatlar mahsulotlari va xizmatlarining kirishi shartlarini kelishish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarni tugallagan, hozirgi kunda ishchi guruhga kiruvchi qolgan bir qator JST a'zolari bilan bunday muzokaralarni yakunlash maqsadida izchil ishlar olib borilayotgani aytilmoqda.

Tadbir yakunida muhokama etilgan masalalar, shuningdek, Qonunchilik palatasi va ijro hokimiyati faoliyatida rejalashtirilayotgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

QAROR QOG'UZDA QOLMASA...

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalariga qo'mitasi yig'ilishida qator dolzarb vazifalar muhokama markazida bo'ldi.

Senatorlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunni dastlabki tarzda ko'rib chiqdi.

Ushbu hujjat bilan amaldagi qonunchilikka nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Ta'kidlanganidek, mazkur qonun nafaqat bolalarning, balki barcha yoshdagi fuqarolarning qo'shimcha ta'lim olish, ularning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga mos ravishda ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qo'shimcha kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashlariga ko'maklashishga xizmat qiladi.

Majlisda Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish natijalari muhokama qilindi. Ta'kidlanganidek, bu ish qo'mita tomonidan Senatning Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi bilan birgalikda amalga oshirilgan.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va qamrovini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lami ishlohotlar amalga oshirilmoqda. Sohaga ajratilgan mablag'lar hajmi 6 karra ortib, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasi yanqilanmoqda.

Xususan, viloyatda 18 – 40 yoshdagi aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha 2025-yil uchun reja tasdiqlanib, 369 ming kishini skrining tekshiruviga jalb qilish nazarda tutilgan. Joriy yil

birinchi yarim yilligi yakunigacha 169 mingdan ziyod fuqarolar profilaktik ko'rikka qamrab olingan va sog'lomlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrda "Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar holati muhokama etildi.

Senatorlar Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash sohasida korruptsiyaning oldini olish yo'nalishida ishlar samarali tashkil etilmaganligi hamda aholiga xizmat ko'rsatish jarayonlarida "inson omili" hamon saqlanib qolayotganligiga e'tibor qaratdi.

Jumladan, har bir oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinika va shifoxonalarning kirish joylarida korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan chaqiriqlar, "ishonch telefonlari"ni joylashtirish vazifasi belgilangan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishdagi ishlar qoniqsiz tashkil etilganligi, "ishonch telefonlari" umuman ishlamasligi ta'kidlandi.

Birlamchi tibbiyot muassasalarining dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlanish darajasi pastligiga qolayotgani, mavjud tibbiy jihozlar va tibbiy texnika ma'nan eskirgani va ushbu muassasalarining moddiy-texnik holati ta'minlanish holatida ekanligi tanqid qilindi.

Senatorlar mas'ul vazirlik va idoralar rahbarlarining sohada amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi axborotlarini tingladi va ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

Aks sado

SIYOSIY IRODANING AMALIY IFODASI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ordenini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Turkmaniston tomonidan davlatimiz rahbariga bunday yuksak ordenning topshirilishi – bu nafaqat Shavkat Mirziyoyev shaxsiga ko'rsatilayotgan yuksak hurmat, balki butun O'zbekiston xalqining tinchlikparvar siyosatiga, mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga qo'shgan ulkan hissasiga berilgan e'tirofdir.

Bu kabi yuksak mukofotlar Prezidentimizga birinchi marta topshirilayotgani yo'q. So'nggi yillarda Turkiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Rossiya, Saudiya Arabistoni va boshqa qator mamlakatlar tomonidan ham davlatimiz rahbari xalqaro mukofotlar va ordenlar bilan taqdirlangan. Bu esa Shavkat Mirziyoyevning xalqaro maydondagi nufuzi, dunyodagi tinchlik, barqarorlik, hamkorlik va adolatni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslari xalqaro miqyosda

tan olinayotganining yaqqol namoyonidir. Prezidentimiz har doim o'z chiqishlarida o'zaro ishonch, ochiq muloqot va manfaatlar uyg'unligi bugungi dunyoda barqaror taraqqiyotning kaliti ekanini ta'kidlab keladi. Turkmaniston bilan munosabatlarni aynan mana shu tamoyillarga asoslangan. Oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan yirik iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalar, transport va logistika sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, xalqarimiz o'rtasidagi qardoshlik rishtalari buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Ashxobodagi BMT konferensiyasi



doirasida mazkur mukofotni topshirishga bag'ishlangan marosim O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi strategik sheriklikning yuksak nuqtasiga aylandi. Bu nafaqat ikki mamlakat, balki butun Markaziy Osiyo uchun muhim signaldir: mintaqada davlatlari o'z salohiyatini birlashtirib, global tashabbuslarni ilgari surishga qodir ekanini dunyoga namoyon qilmoqda.

Shu bilan birga, Prezidentimiz tomonidan turkman xalqiga yo'llangan samimiy tabriklar va Ashxobodda bo'lib o'tadigan xalqaro tinchlik va ishonch yili doirasidagi global sammitga bildirilgan tilaklar ham o'zaro siyosiy ishonch darajasining yuqoriligini ko'rsatadi.

Senat a'zosi sifatida bugungi voqelikni ikki xalq manfaatlarini o'ylagan, mintaqaviy mustahkamlik va farovonlikni maqsad qilgan siyosiy irodaning muvaffaqiyatli ifodasi, deb baholayman.

Kobuljon TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari.

CHINAKAM DO'STLIK RISHTALARI

O'zbekiston chegaradosh mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash borasida faol tashqi siyosat olib bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, yaqin qo'shnichilik, o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo'nalish sifatida belgilangan.



O'zbekiston va Turkmanistonning milliy manfaatlariga asoslanib yuritilayotgan tashqi siyosatida bir qancha mustahkam jihatlarni mavjud. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlik ikki mamlakatning xalqaro maydondagi konstruktiv va samarali munosabatlariga misol bo'la oladi.

Aynan shunday mazmundagi O'zbekiston va Turkmaniston konstruktiv muloqot va o'zaro anglashuv muhiti ravnaq topishida BMT doirasida amalga oshirib kelinayotgan loyihalar alohida e'tiborga molik. Chunki ikki davlat munosabatlari Markaziy Osiyo mintaqasini savdo-sotiq tizimining uzviy bo'g'ini, ta'bir joiz bo'lsa, hal qiluvchi omillardan biridir. Binobarin, o'zbek va turkman xalqlari azaldan do'st, qardosh, birodar, tarixi, madaniyati, orzu-umidlari bir-biriga uyg'un xalqlar sanaladi. O'zaro tarixiy-madaniy aloqalar o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi ko'p asrlik birodarlikning mustahkam tamal toshi bo'lib kelmoqda.

Davlat rahbarlari o'rtasida o'rnatilgan iliqlik va do'stona jarayonlar, Prezidentlarning siyosiy irodasi va uzoqni ko'zlagan oqilona siyosati

natijasida keyingi yillarda munosabatlarimiz butunlay yangi bosqichga chiqdi. Xalqarimiz o'rtasida ishonchli do'stlik muhiti yaratildi. Shuningdek, iqtisodiyot va savdo, transport, energetika, sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lim va mudofaa sanoati kabi sohalarida ikki tomonlama hamkorligimiz tobora ortib borayotir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan ushbu mamlakatga amaliy tashrif davlatlarimiz chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash siyosatiga sodiqligidan dalolat beradi.

Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Turkmanboshi shahridagi "Avaza" milliy turizm hududida uyushtirilgan BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasida ishtirok etib, qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, BMT shafeligida dengizga chiqish yo'liga ega bo'lgan mamlakatlar uchun Tranzit kafolatlari to'g'risidagi global bitimni ishlab chiqishni taklif

etgani muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday mexanizm portlar va kommunikatsiyalardan adolatli foydalanish shartlarini ta'minlaydi. Yuk tashishda xavf-xatarlarni pasaytirib, global logistika tizimiga oid innovatsion loyihalarni ilgari surish, o'zaro bilim va tajriba almashishga imkon beradi.

"Avaza" milliy sayyohlik zonasida bo'lib o'tgan konferensiya kun tartibidan transport tarmog'ida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va savdo tartib-taomillarini soddalashtirish, iqtisodiy transformatsiya, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit uchun xatarlarga bardoshlikni oshirish, Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro'yobga chiqarishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari o'rin olgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, Avaza siyosiy deklaratsiyasi va harakatlar dasturining qabul qilingani mintaqaning transport bo'yicha bog'liqligini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

O'zbekiston va Turkmanistonning dengizda savdo olib borish borasidagi hamkorligining mustahkamlanishi, shuningdek, transchegaraviy suv resurslarini oqilona taqsimlash va foydalanish sohasidagi faoliyati ushbu davlatlar o'rtasida barqaror konstruktiv-pozitiv sheriklik qaror topishida muhim rol o'ynaydi. Asosiy, O'zbekiston va Turkmanistonning ochiq, do'stona va pragmatik siyosati mintaqada xalqlari iqtisodiy hayoti barqarorligini ta'minlash hamda mintaqada savdo-sotiqning rivojlanishiga xizmat qiladi.

BMTning Dengizga chiqish imkoni bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasi doirasida Prezidentimizga Turkmanistonning "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ordenining tantanali topshirilishi mamlakatimizga yuksak e'tibor va e'tirofning yorqin ifodasidir. Bunday yuksak mukofot ikki xalqning ko'p asrlik chinakam do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlariga berilgan baho hamdir.

Boy tarixiy tajriba, qardoshlik va o'zaro hurmat an'analariga asoslangan O'zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishildi. Keyingi yillarda muhim iqtisodiy va gumanitar loyihalar amalga oshirildi, o'zaro savdo hajmi va kooperatsiya ko'lami keskin ortdi.

Ushbu tarixiy tashrif ikki mamlakat munosabatlari yangi bosqichga olib chiqib, hamkorlikni yanada kengaytirish uchun zamin yaratish bilan birga, azaliy qardosh o'zbek va turkman xalqlarining do'stona aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Gulnara AVEZDURDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

UMUMIY MAQSAD VA TARAQQIYOT SARI

Davlatimiz rahbari Turkmanistonning Avaza shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dengizga chiqish imkoni bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha uchinchi konferensiyasidagi nutqida mintaqada tinchlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanish istiqbollari to'xtalib o'tdi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha konferensiya mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda ham muhim xalqaro tadbir hisoblanadi. Shu jihatdan, Prezidentimizning anjumanda so'zga chiqqani, qator tashabbuslarni ilgari surgani ahamiyatli bo'ldi.

"Bugun bizni birlashtirgan kun tartibi fundamental masala – adolat masalasiga daxldordir. Bu – dengizga chiqish yo'liga ega bo'lgan davlatlarga jahon iqtisodiyotida teng sharoitlarda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlashdir... Buning uchun BMT shafeligida Tranzit kafolatlari to'g'risidagi global bitim ishlab chiqishni taklif etamiz", dedi davlatimiz rahbari o'z nutqida.

Shuningdek, Prezidentimiz Logistika integratsiyasiga ko'maklashish jam'armasini ta'is etish, donor mamlakatlar, xalqaro rivojlanish institutlari va global dasturlar resursini keng jalb qilish, dengizga chiqish yo'liga ega bo'lgan mamlakatlarning Zafif indeksini yaratish, bunda davlatlarning cheklangan imkoniyatlarini xolis ko'rib chiqish, raqobatbardoshlik va ishbilarmonlik muhitini adolatli baholash takliflarini ilgari surdi.

Turkmaniston yetakchisi bilan muloqotda ham Prezidentimiz xalqlarimizga munosib turmush sharoitlari yaratish, ijtimoiy soha, xususan fan, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalarida hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdi.

Qayd etish joizki, O'zbekiston – Turkmaniston munosabatlari chuqur tarixiy ildizga ega. Bu ikki qardosh xalq asrlar davomida yagona davlatchilik an'analarida yashab kelgan, umumiy maqsad sari birga intilgan. Ushbu hamkorlik so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi, ta'bir joiz bo'lsa, strategik sheriklik darajasiga yetdi.

Prezidentimizning Turkmanistonga ba galgi tashrifida mamlakatimizga yanada yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatilgani sezildi. Ayniqsa, konferensiya avvalida o'tkazilgan marosimda Prezidentimiz Turkmaniston Respublikasining "Hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" oliy ordeni bilan mukofotlangani barchamizga iftixor bag'ishladi. Bu boy tarixiy tajriba, qardoshlik va o'zaro hurmatga asoslangan O'zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi.

Zero, ushbu nufuzli mukofot xorijiy mamlakatlarning tanilgan davlat va jamoat arboblari xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik, hamkorlik hamda o'zaro tushunishni mustahkamlashdagi alohida xizmatlari uchun beriladi.

Ushbu xalqaro konferensiyaga Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy va xalqaro munosabatlarda muammolarni bamaslahat hal etish yuzasidan muhim qadam bo'ldi.

Robaxon MAHMUDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari.



ENG AVVALO – IQTISODIYOT VA INVESTITSIYA

O'zbekistonning "yashil" kelajagi farovonlik va ish o'rinaridan boshlanadi

Har bir mamlakatning o'z rivojlanish yo'li bor. Ba'zi davlatlar sanoat bosqichidan o'tib, iqtisodiyotda yetarli darajada ish o'rinarini yaratgan, infratuzilmalari shakllantirgan va endi "yashil" taraqqiyot yo'liga o'tib, barcha xazira hamda sa'y-harakatlarini chiqindilarni kamaytirish va uglerod neytralligiga erishishga qaratishi mumkin. Boshqalar esa, shu jumladan, O'zbekiston ham kelajakda ekologiya bilan bog'liq masalalarga tizimli va izchil kirishish imkoniyatiga ega bo'lish uchun jadal taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi kerak bo'ladi. Bu tabiat hamda mablag' o'rtasidagi tanlov emas, balki mantiq va izchillik masalasidir.

Fikr

Ayni paytda jadal rivojlanish bosqichida bo'lgan mamlakatimizda ustuvorlik iqtisodiyotga berilishi tabiiy. Investitsiyalarni jalb etmay, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirmay, ish o'rinarini yaratmay turib, ekologik muammolarni hal etish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Chunki dunyo tajribasiga ko'ra, ekologik masalalarni samarali hal qilish uchun avval byudjetda barqaror ortiqcha mablag', biznesda esa modernizatsiya va yangi texnologiyalarga o'tish uchun rag'bat bo'lishi kerak.

Bugungi kunda jahonda xalqaro investitsiyalarning umumiy darajasi pasayib bormoqda. Bu barcha davlatlar uchun tashvishli signal. Bizing ham xotirjam bo'lishga haqqimiz yo'q. Xorijiy korporatsiyalar aynan bizga investitsiya kiritish uchun navbatda turibdi, deb o'zimni alday olmaymiz.

Demak, har bir imkoniyatdan foydalanishimiz lozim. Mamlakat infratuzilmasi va eksport salohiyatini ko'tara oladigan, ish o'rinarini hamda soliq tushumlarini ko'paytiradigan har qanday investitsiyaviy loyihani milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishimiz, uni bamaylixtir, shoshilmasdan va hissiyotlarga berilmasdan, mavjud dalillar asosida muhokama qilishimiz kerak bo'ladi.

Ekologiya – juda muhim, u siz va bizing salomatligimiz, kelajak avlodlarning farovonligi. Lekin chiqindilarni qayta ishlash tizimini yo'lga qo'ygan, elektromobillardan ommaviy foydalanayotgan va "yashil" energetikaga milliardlab dollarlik dotatsiyalar ajratayotgan Germaniya, Fransiya, AQSH kabi rivojlangan davlatlar "uglerod izi"ni kamaytirish masalasini muhokama qilayotgan bir paytda biz bandlekni ta'minlash, farovonlikka erishish, migratsiyaning oldini olish, yoshlarni mamlakatda olib qolish kabi hayotiy vazifalarga e'tiborni qaratishga majburlarmiz.

degani, bu faqat go'zal manzara emas. U, shuningdek, yo'llar, mehmonxonalar, aloqa va transport, xizmat ko'rsatish sohalarini o'z ichiga oladi. Agar zamonaviy infrastruktura yaratilmasa, hatto Issiqko'l va Qayroqqum singari Markaziy Osiyo javohirlari fonida ham bizing Chorog'imiz jozibador bo'lib ko'rinishi mumkin. Sayyohlar juda talabchan bo'lishadi. Ular nafaqat tabiatni tanlashadi, balki qulayliklarni ham. Qulaylik esa mablag' talab qiladi.

Shu jihatdan, hozir "Sea Breeze Uzbekistan" loyihasiga har tomonlama nazar tashlab ko'rish lozim. Bu loyiha keng ko'lami investitsiyaviy tashabbus bo'lib, u nafaqat Toshkent viloyatining qiyofasini, balki umuman mamlakatimizning zamonaviy turizm salohiyati haqidagi tasavvurni ham o'zgartirishga qodir. Ozarbayjonlik tadbirkor Emin Agalarov 2024-yil dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyevga yilbo'yi ishlaydigan kurort barpo etish loyihasini taqdim qildi: bu yerda piyajlar, sport maydonchalari, mehmonxonalar, kottejlar, akvapark va dam olish zonalarini quriladi. 600 gektarga yaqin maydonni o'z ichiga oladigan mazkur loyihaga kiritiladigan investitsiya hajmi 5 milliard dollarni tashkil etadi.

Hukumatimiz bu loyihani qo'llab-quvvatlab, yer maydonini 25 yilga pasaytirilgan narxda ijaraga berish haqida qaror qabul qildi. Investor Buyuk Britaniyaning "Scott Brownrigg" arxitektura kompaniyasi ishtirokida tayyorlangan boshladi. Qurilish doirasida daraxtlar ko'chirilishi, ekologik ekspertiza va suv chiqarish tizimini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Mazkur inshoot haqidagi xabar jamiyatda bahs-munozarlarga sabab bo'ldi va bu yaxshi. Negaki, mamlakatimizda jamiyat ma'lumot olish, so'lash, nazorat qilish huquqiga ega bo'lib, bu yetuklikni ko'rsatadi. Ammo tanqid taraqqiyotni o'txtatib qo'yishi kerak emas. Bugungi kunda bizga milliardlab mablag' kiritadigan sarmoyadorlar kerak. Chunki har bir

ana shunday loyiha tufayli nafaqat mehmonxonalar quriladi, balki yangi ish o'rinarini paydo bo'ladi, soliq tushumlari o'sadi, logistikadan tortib qishloq xo'jaligigacha barcha aloqador sohalar uchun stimull yaratiladi.

"Sea Breeze Uzbekistan" loyihasining muhokamasi shuni ko'rsatadiki, biz har bir loyihani obdan o'yab, shundan keyingina fikr bildirishni o'rganishimiz kerak. Har tomonlama tahlil qilib, foyda va zararini taroziga solib ko'rishimiz joiz. Shunda investor jamiyatning e'tiborini his qiladi, qonunlar, me'yoriylar buzishga jur'at etmaydi. Chunki qonun-qoidalariga rioya qilmasa, shunga yarasha javobini olishini biladi. O'z navbatida, biz ham qiyinchiliklardan qo'rqib, imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yamizligimiz kerak.

Bugun O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy jihatdan o'sishi kerak. Faqat shuni ta'minlasak, biz ham Yevropa singari "uglerod izi", "yashil" iqtisodiyot masalalarini muhokama qila olamiz. Bugun rivojlanayotgan davlatlar, deb e'tirof etilayotgan mamlakatlar aynan shunday yo'lni bosib o'tishgan.

Sayyora FAYZIYEVA,
xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi raisi.

YAXSHI QO'SHNICHILIK, MINTAQAVIY BIRDAMLIK ALOQALARI YANGI BOSQICHDA

Unda transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va savdo tartib-taomillarini soddalashtirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, iqlim o'zgarishi va ekologik tahdidlarga bardoshlikni oshirish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari o'z so'zida konferensiyada muhokama qilinayotgan masalalar hayotiy muhim ahamiyatga ega ekanini, chunki dengiz portlaridan jug'rofiy uzoqlik va bir necha mamlakat hududlarini kesib o'tish zarurati bir qator obyektiv muammolarni keltirib chiqarayotganini ta'kidladi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lgan mamlakatlarning umumiy tahdid va muammolarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Konferensiya yakunida Avaza siyosiy deklaratsiyasi qabul qilindi.

Mazkur konferensiyaning yana bir qimmatli jihati shundaki, unda Prezidentimiz Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilaridan tashqari qator boshqa xalqaro tashkilot rahbarlari va mamlakatlarning rasmiy delegatsiya a'zolari bilan o'zaro sheriklik munosabatlaring keyingi bosqichlarini muhokama qildi. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh

kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuvi o'tkazildi.

Unda qator muhim masalalar, xususan, global va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb vazifalari, BMT Bosh Assambleyasining bo'lajak 80-yubiley sessiyasini o'tkazish, Markaziy Osiyoda integratsiyani chuqurlashtirish, Afg'onistonda mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga jalb etish masalalari xususida so'z yuritildi.

Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze bilan uchrashuvda savdo-iqtisodiyot, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalaridagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqilib, o'zaro tovar yetkazib berishni ko'paytirish, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat tarmoqlarida, shuningdek, logistika sohasida kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish muhimligi xususida fikrlashildi.

Konferensiya doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov o'rtasida uch tomonlama uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda o'zaro manfaatli mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi, energetika, transport va logistika, sanoat va qishloq

xo'jaligi sohalarida kooperatsiya uchun imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi. Qolaversa, amaliy hamkorlikning istiqbolli loyihalarini ishlab chiqish uchun mazkur formatdagi muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

Shuningdek, O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida strategik sheriklikni kengaytirishga kelishib olindi. Davlatimiz rahbari Turkmaniston Respublikasi Prezidenti Serdar Berdimuhamedovni Xalqaro tinchlik va ishonch yilida BMTning global konferensiyasi yuqori saviyada o'tkazilgani bilan samimiy qutladi. Uchrashuvda bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorlik doirasida O'zbekiston – Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari yanada kengaytirishning dolzarb masalalari bo'yicha fikr almashildi.

Davlat rahbarlari konferensiya doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon milliy kunlariga bag'ishlangan tadbirlarda ham qatnashdi. Hunarmandchilikka bag'ishlangan,



madaniyat, san'at va turizm sohalaridagi zamonaviy yutuqlar aks etgan milliy pavilyonlar, milliy taomlar ko'rgazmasi va pazandachilik bo'yicha uyushtirilgan mahorat darslari, ayniqsa, an'anaviy o'zbek hovlisi ko'rinishida qurilgan O'zbekiston pavilyoni barchada yorqin taassurot qoldirdi.

Mazkur tadbir o'z o'rnida Markaziy Osiyoni tinchlik, barqarorlik va farovonlik makoni sifatida namoyon etishga xizmat qilib, mintaqada xalqlarining boy madaniy merosi, qolaversa, o'zaro yaxshi qo'shnichilik aloqalarining namunasini yaqqol ifodaladi.

Shubhasiz, davlatimiz rahbarining mazkur amaliy tashrifi O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi mintaqaviy sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan va kelishilgan yondashuvlari mintaqada taraqqiyot va farovonlik maqsadlariga erishishga xizmat qilishi uchun asos bo'ladi. Zero, xalqimizning "Qo'shning tinch – sen tinch" naqli o'zaro hurmat va strategik taraqqiyot rivoji uchun xizmat qiladigan shu kabi uchrashuvlarda ham o'z aksini topmoqda.

Bahodir MA'MUROV,
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.

MANASLIKLAR HAYOTINI O'ZGARTIRGAN QIROQ BESH KUN



Bu ham mayli, mahalladagi ba'zi birovlar uyini taniy olmay, ancha payt ko'chada angrayib yurganini aytmaydilar! Axir, yaqindagina chiqib ketayotganda, nura, mung'ayib qolgan ko'cha devorlariyu shiferlari sinaverib, ming yamoq bo'lgan uyining tomiga qarab yuragi ezilib ketganmi? Ha, devorlari qulamay, yozgacha chidab bersa, bir amallab ta'mirlashi kerakligini o'ylab ketgandi. Bugun esa uyim, deb taxmin qilgan imoratning oldida ichkariga kirishga jur'at qilolmay turibdi. Tushmi bu yo' o'ng? Xayolotni yoxud haqiqat?

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun ko'pam qiyalish shart emas, yaqin o'tmishga qaytish kifoya.

Bundan yetti yil muqaddam davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan ezgu ish xalqimizga chinakam umid bag'ishladi, oilasi va ko'ngliga xotirjamlik nuri, baxt hidini olib kirdi.

O'sha yil vazirlik va idora rahbarlari hamda mutaxassislardan iborat ishchi guruhi Do'stlik tumanidagi barcha qishloq va mahallalarning ijtimoiy holatini o'rgandi. Shundan so'ng "Obod qishloq" dasturini amalga oshirish maqsadida birinchi marta bo'lib viloyat markazidan 70 km. uzoqlikda joylashgan Manas qishlog'i tanlandi.

Endi eng quvonarli jihatga to'xtalsak. O'shanda dastur asosida qishloqda 34 ta ko'p qavatli uyning tomi to'liq yangidan yopildi. Rejasiz qurilgan ko'rimsiz bino va obyektlar olib tashlanib, yangidan yordamchi inshootlar qurildi. Atrofga mevali va manzarali daraxt ko'challari o'tqazildi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 65 km. uzunlikda suv quvuri yotqizildi. 41 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari tozalandi. Eski qishloq vrachlik punkti o'rnida zamonaviy oilaviy poliklinika bunyod etildi. Ikkita umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim muassasasi kapital ta'mirlanib, qayta jihozlandi.

Qishqacha aytganda, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Obod mahalla" dasturi doirasida o'sha yili Jizzax viloyatining Do'stlik tumanidagi qirg'iz millatiga mansub 6 mingdan ortiq aholi yashaydigan Manas qishlog'i infratuzilmasi tubdan yangilanib, atigi 45 kunda go'zal shaharchaga aylantirildi.

Qirg'iz besh kun insoniyat tamadduni oldida lahza dek gapdir, ammo mana shu lahza manasliklar nazdida asrlarga tatigulik hodisa ro'y berdi. Quvonarlisi, qishloq ahli ham chetda jim qarab turmadi, qariyb qaytadan qurilgan ta'lim va tibbiyot muassasalari topshirilishga tayyor bo'lguncha ular ham qo'lidan kelganicha mehnat qildi. Jo'mraklardan oqayotgan toza ichimlik suviga quvonch bilan kaftlarini tutayotgan hamqishloqlar sevinchi yeri ko'kka sig'madi. Asfalt yotqizilgan yo'llar atrofiga ekilgan mevali va manzarali ko'chatlarning barq urib yashnashida ko'ngillarida orzular gullayotgan yoshlarning kelajagi ko'ringandek bo'ldi. Negaki, o'rtada ma'lum muddat darz ketgan o'zbek - qirg'iz munosabatlaridan so'ng manasliklarning ham ruhlari

tushib, ahvol o'nglanishiga umid qilmay qo'yishgan, qishloqning navqiron avlod vakillari ish izlab, birin-ketin o'zga yurtlarga keta boshlagandi.

Butun umrim shu qishloqda o'tdi, - deydi "Manas" qishloq fuqarolari yig'ini raisi, "Shuhrat" medali sohibi Jalil Kenjayev. - Maktabda yetakchilikdan ish boshlagan bo'lsam, keyinchalik xo'jalik bosh hisobchisi, xo'jalik rahbari lavozimlarida faoliyat yuritdim. Qishloqdagi har bir oilaning quvonch-tashvishlariga sherik bo'lib kelmoqdaman. Har qaysi fuqaroning qanday yashash yima bilan bandligi menga besh qo'lday ayon. Orada qancha qiyinchiliklarni boshdan o'tkazdik. Qiyinchiliklarga bardosh berolmaganlar xorijdan baxtini izlashga tushdi, Manasdan ham 300 xo'jalik ko'chib ketdi. Ularning aksariyati yosh oilalar edi. Biz, shu yurt tuprog'ida ildiz otib, tomir yoyganlar esa ketmadik, to'g'rirog'i, biz uchun muqaddas bo'lib qolgan zaminni tashlab ketolmadik. "Sabrning tagi - sariq oltin" deganlari rost ekan. Mana, yorug' kunlar kelib, hayotimiz jiboyi o'zanga tushdi.

2018-yil 30-mart kuni davlatimiz rahbari Manas mahallasidagi "Obod qishloq" dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishgach, madaniyat saroyida o'tkazilgan yig'ilishda aytgan "Men "Obod qishloq" dasturini bekorga Manasda boshlamadim, chunki bu yerda tanti va mehnatkash xalq yashaydi", degan so'zlari butun manasliklar ko'nglini ko'klarga ko'tarib yubordi. Obodlik ko'ngildan boshlanadi, deganlari shu bo'lsa kerak-da!

Darhaqiqat, qirg'iz eposi qahramoni nomi bilan ataluvchi Manas qishlog'i o'z fursatlarida chinakam do'stlik ko'rg'oniga aylandi. Zotan, o'zbek va qirg'iz millatlari ildizi bir, tili bir, dili bir qarodosh xalqlar ekaniga shakshubha yo'q. Ming yilliklar davomida birga, yonma-yon yashab kelgan o'zbek va qirg'iz xalqlari do'stligiyu birodarligi tahsinga loyiq. Ba'zan bir ko'chaning ikki tomonida, bir soynig ikki sohilida istiqomat qilib, to'yu ma'rakalarini birga o'tkazgan, yaxshi-yomon kunlarida birga kelgan o'zbek va qirg'iz xalqi doim bir-biriga uyining to'rini bergan va berayotir.

Rost, bu ikki millat tashqi

dushmanlarga qarshi yelkama-yelka turib kurashgan, muqaddas Turon o'lkasining ozodligi, mustaqilligi uchun jonini fido qilgan. Masalan, qirg'iz xalqining jahonga mashhur dostoni "Manas"da bosh qahramon Manas botir Turon o'lkasiga ko'z tikkan dushmanlar - qoraxitoylar va jung'orlarga qarshi mardonavor kurashgan. Manas botirning ishonchli lashkarboshilari esa o'zbek qavmi vakillaridan, suyuqli yori Qonikey Buxoro xoni Temirxonning

qirg'iz xalqiga bo'lgan hurmat, deb bilamiz. Eng muhimi, millatdoshlarimiz turmush tarzi bilan tanishib, ularning O'zbekistonda millatlararo tinchlik, do'stlik, totuvlik tamoyillari asosida yashayotganiga guvoh bo'ldik. Atqli adib, ulkan jamoat arbobi Chingiz Aytmatov javolladi O'zbekistonda ham keng nishonlandi. Bu ikki xalqning tili, dili birligi, tomirlari tashvishiga dalolatidir. Bu ishlarning boshida turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Xudo siylasin!

Bunday e'tiroflar har qanday o'z yurtini sevuvi, vatanparvar insonni befarq qoldirmaydi, albatta.

Qirg'izlarda qishloqning achchiqiyu chuchugida, yaxshiyu yomonida bosh bo'lib turadigan, o'tidan kirib, suvidan chiqadigan ulug'lari "o'tog'a" deb

nomlanadi, izzat-hurmat qilinadi. Jalil Kenjayevga ham mahalla raisidan ham ko'ra, o'tog'a sifati juda mos keladi.

Bugun yana yo'limiz Manasga tushib, mahalla idorasiga kirib borar ekanmiz, u yerdagi obodlik, ozodalikdan ko'nglimiz ravshan tortdi va o'tog'amizni savolga tortdi: "Xo'sh, kechagi kun quvonchlar nafaqat bugunni, balki ertani ham yoritishi uchun qanday amallar qilinayapti? Natijalar qanday? Manasliklarning kayfiyati yaxshimi?"

- A'lo darajada, - deydi u.

Manasliklar o'zlariga ko'rsatilgan g'amxo'rlikdan so'ng hayotga yangicha ruh bilan qarab, imkoniyatlardan unumli foydalanmoqda. Ko'p qavatli uylarda yashovchi hamda aholining kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalar tarkibiga kiruvchi qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida 30 ta shunday oilaga 7 foizlik imtiyozli kreditlar ajratilib, ona-bola sigirlar olib berilgandi. Kimdir shartnoma bilan chorvachilik fermalaridan pul o'tkazish yo'li bilan, kimdir bozorda o'zi tanlagan molga bank to'lovi bilan chorva mollari xarid qildi. Eng asosiysi, qishloqdagi 34 ta ko'p qavatli uyda yashovchi oilalarga o'z qoramollarini saqlash uchun qishloq chetidan 150 bosh qoramoli boqishga mo'ljallangan zamonaviy molxonaning qurib berilishi fuqarolarni kuz-qish mavsumida joy qidirish tashvishidan xalos etdi.

Hozirgi kunda o'sha oilalar mollari tuyog'ini ancha ko'paytirib olishgan. Ana shunday oila vakillaridan birini suhbatga tortdik.

Qishlog'imizda "Obod qishloq" dasturi boshlanganida ushbu xayri tashabbus qanot yozib, butun mamlakat obod va farovon bo'lsin".

Shuningdek, Qirg'iziston Milliy yozuvchilar uyushmasi raisi Nurlanbek Qalibekovning O'zbekistonga safari chog'i bir tabdirda aytgan so'zlari ham hali-hamon esimda...

Odatda, turli xalqlarni bir-biriga ko'rsatilgan mehr-oqibat rishtalari tom ma'noda og'a-ini, do'st-birodar qiladi, - degandi u. - Qirg'iz xalq qahramonligining timsoli nomi bilan ataluvchi bu qishloqning obod etilishi, avvalo,








o'tgan yili kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan 20 nafar yoshga 1 gektardan 20 gektar yer ajratib berilgan ekan. Qaysi mahsulot ekilsa, dehqon ko'proq hosil olib, daromadi oshadi, degan savol qo'yilib, brokkoli ekishga qaror qilinibdi. Mahalla ahli bu ekinni avval yetishtirmagan, parvarishda xatoga yo'l qo'ysa, butun mehnat chippakka chiqishi mumkin. Shu xavotirda shu ishning hadisini bilgan dehqonlardan amaliy saboq olish kerak, degan maslahat bilan surxondaryolik dehqonlarni Manasga olib kelishibdi. Ular Surxondaryodan o'zlari bilan ko'chat olib kelib, manaslik yoshlarga brokkoli ekish va parvarishlash sirlarini o'rgatib ketishibdi.

Yoshlar birinchi yili ikkinchi ekinga brokkoli ekib, yaxshi daromad olishibdi. Bu yil esa birinchi ekinga qovun-tarvuz yetishtiribdi, ular yig'ib olingach, ikkinchisiga yana shu ekinni ekishni mo'ljallab turishibdi ekan.

Xayrli tashabbuslar ortidagi xayrli ishlar ergashib yurishiga ko'pchilik ishonadi. Gap shundaki, 1 gektardan yer olgan har bir yoshga o'ziga ajratilgan yerning bir chekkasidan 4 sotixdan issiqxona ham qurib berilibdi. Mazkur issiqxonalarda pomidor, bodring singari rezavor ekinlar yetishtirgan yosh dehqonlarning bugun qo'liga qo'liga tegmayapti. Rustam Norboyev o'sha yoshlardan biri. U Rossiyada ishlab, hayotning achchiq-chuchugini totgan, yurt qadrling nechoq'li ulug'ligini anglagan yigit. Yoshlarga berilayotgan imtiyozlarni ko'rgan Rustam ona qishlog'ida qolib, dehqonchilik qilishni ma'qul ko'rdi. O'tgan yili Prezident va yoshlar uchrashuvida ishtirok etib, o'z kechinmalarini izhor qilgandi. Bugun esa u Manasning eng faol yoshlaridan biriga aylangan.

Qayd etish joiz, Manas yurtimizda eng qisqa fursatda qayta qurilgan qishloq hisoblanadi. Qirg'iz besh kun davomida amalga oshirilgan ishlar barchasini sanab chiqishning o'zi mushkul. Bu ishning butun ko'lami va mahobatini anglash uchun bu yerga kelib ko'rish, odamlarining to'lib-toshib aytgan so'zlarini eshitish, qalb ila his qilish kerak, albatta.

Mehribon ABDURAHMONOVA ("Xalq so'zi").



“O'shanda dastur asosida qishloqda 34 ta ko'p qavatli uyning tomi to'liq yangidan yopildi. Rejasiz qurilgan ko'rimsiz bino va obyektlar olib tashlanib, yangidan yordamchi inshootlar qurildi. Atrofga mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 65 km. uzunlikda suv quvuri yotqizildi. 41 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlari tozalandi. Eski qishloq vrachlik punkti o'rnida zamonaviy oilaviy poliklinika bunyod etildi. Ikkita umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim muassasasi kapital ta'mirlanib, qayta jihozlandi.”

Yangi O'zbekiston bunyodkorlari



YOSHLARNING HAR BIR MUVAFFAQIYATI — XALQIMIZNING YUTUG'I

Keyingi yillarda yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o'rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o'rin topishga ko'maklashish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada olib borilayotgan ishlohtlarning samaralari o'g'il-qizlarimizning erishayotgan natijalarida ham o'z ifodasini topmoqda. Xususan, o'tgan yili 150 mingdan ziyod yigit-qizlar xalqaro til sertifikatlarini oldi. Bu - 2023-yildagiga nisbatan 2 baravar ko'p. 2024-yilda yurtimiz yoshlari "TOP - 500" talik oliygohlariga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egalladi.

Navqiron avlodga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ishlohtlar izchil davom ettirilayotir. Ana shunday shart-sharoitlardan unumli foydalanib, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarayotgan yoshlar safi tobora kengayib bormoqda. Nafaqat yurtimiz, balki xalqaro miqyosda ham o'z bilim, tashabbuskorligi bilan tanilib, minglab tengdoshlariga ibrat bo'layotgan Munisa Murodova ham yangi O'zbekistonning ana shunday iste'dodli yoshlaridan biridir.

U shu yil 30-iyun - Yoshlar kuni munosabati bilan Prezidentimizning navqiron avlod vakillari bilan muvotiqatda qatnashib, o'z takliflarini bildirdi. E'tiborlisi, uning g'oyalari Yurtboshimiz tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Mamlakatimizning eng iqtidorli va iste'dodli deya e'tirof etilgan yoshlari safida Prezidentimiz bilan uchrashish baxtiga muvassar bo'lganim menga nafaqat

cheksiz faxr va iftixor, balki katta mas'uliyat ham yuklaydi, - deydi ayni paytda Singapur menejmenti rivojlantirish institutining "Biznes va moliya boshqaruvi" yo'nalishida tahsil olayotgan Munisa Murodova. - Shu kuni Prezidentimiz yoshlarning tashabbuslarini o'z qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir maktab o'quvchisining startap g'oyasini rivojlantirish uchun 100 milliard so'm mablag' ajratilishini e'lon qildi. Mening "Kelajak yo'li" loyiham ham ayni shu tashabbus bilan uyg'unlashib, Toshkent shahri shahrining Olmazor tumanidagi 33 ta maktabda 8 - 10-sinf o'quvchilari uchun sinov tariqasida joriy etilishi ko'zda tutilgan. Kelgusida esa loyiha Toshkent shahri bo'ylab barcha tumanlarga bosqichma-bosqich tatbiq qilinishi rejalashtirilayapti. Ushbu loyiha o'quvchilarga biznes strategiyasi, SMM, IT, sun'iy intellekt hamda jurnalistika yo'nalishlarida bepul ta'lim olish imkonini yaratadi.

Barcha ezgu amal niyatga bog'liq

Munisa Murodovaning yetakchilik faoliyati 2022-yilda maktab sardori etib saylanishi bilan bog'liq, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. O'sha paytdan u maktabda ijtimoiy, ma'naviy va innovatsion loyihalarni faol tashkil etishga kirishdi. "Yilning eng yaxshi o'quvchisi" sifatida tan olinib, IT-parkda bepul ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2023-yilda Munisa O'zbekiston tarixida ilk bor "DreamSat" loyihasi doirasida "nanoCubeSat" sun'iy yo'ldoshini stratosfera qatlamiga muvaffaqiyatli uchirishda qatnashdi. Bu ilmiy loyiha orqali u yosh tadqiqotchilari va jamoa koordinatori sifatida tanildi.

2024-yilda esa "NASA Space Apps Challenge" xalqaro xakatonida "AstroTech Innovators" jamoasi bilan "Climate and Gender" mavzuida yuqori natija ko'rsatib, "TOP - 10" jamoa qatoridan joy oldi.

Shuningdek, Munisa Turkiyada o'tkazilgan "TEKNOFEST - 2024" xalqaro aerokosmik festivalida jamoasi bilan dron va raketa yo'nalishlarida "TOP - 5" talikka kirishga erishdi. Bu orqali yosh hamyurtimiz o'zbek yigit-qizlari ilm-fan va texnologiyalar sohasida xalqaro maydonda ham raqobatlasha olishini isbotladi.

Bu muvaffaqiyatlari uchun u "Behbudiy" va "Yuksak ehtirom" ko'krak nishonlariga loyiq ko'rilgan. Ayni paytda Munisa Murodova xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi huzuridagi Yoshlar maslahat guruhi a'zosi hamdir.

Ta'limsiz taraqqiyot, ilm-fansiz yuksalish yo'q

Poytaxtimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasasi - Singapur menejmenti rivojlantirish instituti (MDIST)da tahsil olayotgan Munisa Murodova o'z bilimlarini xalqaro loyihalarda qatnashish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va innovatsion tashabbuslar bilan uyg'unlashtirib bormoqda. Joriy yilda u ingliz tilida ilmiy tadqiqot tayyorlab, universitet doirasida taqdimot qildi. Ushbu ish o'smirlarning raqamli muhitidagi ijtimoiy munosabatlari hamda kommunikatsiya ko'nikmalariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Shuningdek, u o'zining estetik-intellektual qobiliyatini namoyon etib, "MISS MDIST - 2025" tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu tanlov "MDIST" tomonidan har yili eng iqtidorli, faol va ilhomlantiruvchi talabalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tanlovda nafaqat tashqi ko'rinish, balki nutq madaniyati, sahna o'zini tutish, ijtimoiy faollik, yetakchilik salohiyati va g'oyaviy kuch baholanadi. Munisaning intellekti, ijtimoiy

loyihalardagi faolligi, chuqur mulohazalari va o'ziga xos tashabbuslari hakamlar hay'atining e'tirofiga sazovor bo'ldi. Bu yutuq uning ko'p qirrali - yetakchi, innovator, tadqiqotchilari va estetik fikrlovchi yoshlarimizdan biri sifatida shakllanganini isbotladi.

Munisa Murodova kabi zamonaviy o'zbek yoshlarining tashabbuskorligi, bilimiga chanoqliqligi bilan erishayotgan muvaffaqiyatlari butun xalqimizning yutug'idir. Ularning faoliyati o'z tengqurlari uchun nafaqat ilhom, balki amaliy yo'l-yo'riq, rag'bat va ishonch manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Bu esa ularning rejaga, loyihalarini esa haqiqatga aylantira oladigan yetakchi o'g'il-qizlarning safi ko'payishiga turtki beradi. Bunday yoshlar Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avloddir.

Fazliddin ABILOV ("Xalq so'zi").

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi chegara o'tkazish punktlarida "yashil" yo'laklar tashkil etiladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi - 2 ta bob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.14 Topshirildi - 23.35 1 2 3 4 5 6